

OTA-ONALARNI FARZANDIGA BO'LGAN MUNOSABATLARI VA UNING OMILLARI

Nosirova Ruxshona

Farg'ona davlat universiteti 4 kurs talabasi

Annotatsiya: *maqolada tarbiya uning o'ziga xosligi masalalari, ota-onaning farzandiga bo'lgan munosabatlari sharq mutafakirlarining qarashlari ota-ona va farzandlarning burjlari huquqlari atroflicha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ota-ona, bola, ta'lim, tarbiya, munoabat, ong, bilih, huquq, qadam, asos, ta'minot.*

Asrlar davomida ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlari, oilada ularning o'рни, ota-onaning farzand tarbiyasidagi huquqlari va majburiyatlari doimiy, dolzarb masalalardan bo'lgan. Jamiyat rivojlana borgan sari, farzand tarbiyasi, uning ta'minoti bo'yicha qarashlar ham rivojlanib takomillashib borgan. Masalan, Islom huquqining asoslaridan biri bo'lgan hadislarda farzandga yaxshi ism qo'yish, uni chiroyli tarbiyalash va ilm o'rgatish otaning farzand oldidagi burchlaridan biri sifatida ta'riflangan. Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zguidir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bolaga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi



zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo‘llik va shafqatning me‘yorda bo‘lishini bilish mumkin.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhitini yaxshilash, sog‘lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya’ni oila muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo‘lishini, tarbiya berishda ota-onaning o‘zi o‘rnak va hayotiy misol bo‘lishiga farzandi guvoh bo‘lishi eng ko‘p samara berishi ta’kidlangan.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o‘rni xususida fikr yuritib, “Oila” asarida shunday mulohazalar bildiradi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”.

Hozirgi kunda oila davrasida bilim olish va kitob o‘qish borasida suhbat qilish, farzandning ilm olishi xususida suhbatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o‘z vaqtini telefon bilan o‘tkazishi keng tus olyapti. Bunda me‘yordan oshib ketish holatlari ko‘p uchramoqda. Farzandni kitob o‘qishga bo‘lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o‘qishga ko‘nikma hosil bo‘ladi. Bilim olishga bo‘lgan intilish yanada kuchayadi. Oilada bolaning muntazam kitob o‘qishini rivojlantirish uchun ota-ona astoydil harakat qilmog‘i lozim.

Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so‘z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa‘diyning “Guliston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda og‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiyluk yuzasidan namuna bo‘la oladi. Oilada samimiyluk, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko‘rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: ”Otang oldida boshingni fido qilib,



onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh”.

Oilada ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila sog'lom, yetuk farzandni ulg'aytirib kamol toptirishda mas'uldir. Farzandni sog'lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog'liqdir. Manbalarda ham oilaning kelajagini, farzandlarning moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlash uchun ota-ona mas'ulligi, ushbu mas'uliyatni nafaqat oila qurilganidan keyin ta'minlash, balki oila qurilmasidan oldin tayyorgarlik ko'rish kerakligi ko'rsatilgan. Bu kabi talablar zamonaviy qonunchiligimizda ham o'zi aksini topgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida, "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" deb belgilangan bo'lsa, Oila kodeksining 73-moddasiga ko'ra, ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shartligi ko'rsatilib, ota-onaga majburiyat yuklangan. Ota-ona va farzandlar munosabatlarining mohiyati. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama jarayondir. Bu jarayon faqatgina bola tarbiyasiga qaratilgan emas, balki ota-onaning o'z mas'uliyatini his qilishi va bolaga bo'lgan mehrini namoyon etishi bilan ham bog'liq. Ushbu munosabatlar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Mehr-oqibat va ishonch Farzandlar o'z ota-onasidan mehr va e'tibor kutadi. Mehrli munosabatlar bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, hissiy barqarorlikni shakllantiradi. Ishonch esa ikki tomonlama bo'lib, ota-ona farzandlariga ishonch bildirish orqali ularda javobgarlik tuyg'usini rivojlantiradi.

2. Hurmat va tenglik. Ota-ona va bola o'rtasidagi hurmat munosabatlari bolada o'z-o'zini qadrlash tuyg'usini rivojlantiradi. Shuningdek, ota-ona farzandga ularning fikriga quloq tutib, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berishi bola shaxsining to'laqonli rivojlanishiga zamin yaratadi.

3. Hissiy va axloqiy qo'llab-quvvatlash Bolalar o'z hayotining turli bosqichlarida hissiy va axloqiy yordamga muhtoj bo'ladilar. Ota-onaning tushunchali va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlari bola uchun muhim tayanchnoma hisoblanadi. Ota-ona va farzandlar munosabatlarining turlari Oila ichidagi munosabatlar asosan ota-onaning tarbiyaviy uslublariga bog'liq. Quyida ushbu munosabatlarning eng asosiy turlari keltirilgan:



1. Avtoritar munosabatlar. Bu uslubda ota-ona qat’iy nazorat va intizom talab qiladi. Bunday muhitda farzandlar o’z fikrini bildirishdan cho’chishlari va ota-onaga nisbatan qo’rquv his qilishlari mumkin.

2. Demokratik munosabatlar. Ushbu uslubda ota-ona va bola o’rtasida o’zaro hurmat va tenglik hukm suradi. Farzandlarning fikri inobatga olinadi, ular erkin va mas’uliyatli bo’lib tarbiyalanadi. Bu munosabatlar bolaning ijodkorligi va o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi.

3. Liberal munosabatlar. Bunday oilalarda ota-ona farzandga ortiqcha erkinlik beradi va nazoratni cheklaydi. Natijada bolalar mas’uliyatni yetarlicha his qilmasligi yoki noto’g’ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Farzandlarning yoshga xos xususiyatlariga mos munosabatlar.

1. Maktabgacha yoshdagi farzandlar. Ushbu davrda bolalar ko’proq ota-onaning e’tiboriga, mehriga va quvvatloviga muhtoj. Bu bosqichda bola bilan birgalikda o’ynash, unga yangi narsalarni o’rgatish va tushuntirish muhim.

2. Maktab yoshidagi bolalar. Maktab yoshidagi bolalar uchun ota-ona va bola o’rtasidagi muloqot alohida ahamiyatga ega. Bu yoshda bola maktabdagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari haqida gaplashishni xohlaydi. Ota-onaning unga quloq tutishi va kerakli maslahatlar berishi muhimdir.

3. O’smirlik davridagi farzandlar. O’smirlik davrida bolalar mustaqillik va shaxsiy hududga ehtiyoj sezadilar. Ota-onalar farzandlariga ortiqcha nazorat o’rniga, ularning fikrini tushunib, ularni qo’llab-quvvatlashi zarur. Ota-ona va farzandlar o’rtasidagi muammolar Ba’zi hollarda oila ichida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu muammolar ota-onaning noto’g’ri tarbiyaviy uslubi yoki bolalarning psixologik ehtiyojlarini tushunmaslik natijasida kelib chiqadi. Quyida eng ko’p uchraydigan muammolar keltirilgan: Muloqotning yetarli emasligi; Avtoritar yoki beparvo munosabatlar; Farzandning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish; Ota-onalar o’rtasidagi nizolarning bola ruhiyatiga tasiri.

Ota-ona va farzandlar munosabatlarini mustahkamlash yo’llari

1. Sifatli muloqot. Ota-onalar farzandlari bilan kunlik muloqot qilishga vaqt ajratishi kerak. Suhbatlar samimiy va bolani tushunishga qaratilgan bo’lishi lozim.

2. Birgalikda vaqt o’tkazish. Ota-ona va bola birgalikda vaqt o’tkazishi (masalan, o’yinlar o’ynash, sayrga chiqish yoki kitob o’qish) o’zaro ishonchni mustahkamlaydi.

3. Hurmat va mehrni namoyish qilish. Bola o’zini qadrlangan va sevganligini his qilishi kerak. Har bir kichik yutuq uchun maqtov va rag’bat berish ota-ona va farzand munosabatlarini yaxshilaydi.



4. Bolaning hissiy ehtiyojlarini inobatga olish. Farzandlar ota-onaning ularga nisbatan mehribon va tushunchali bo'lishini qadrlaydi. Bolaning hissiy ehtiyojlarini anglash va ularga mos munosabat bildirish muhim.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar oilaning muhitini belgilovchi eng muhim jihatlardan biridir. Ushbu munosabatlar nafaqat bola tarbiyasida, balki uning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarida ham asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ;

1. Shoumarov G.B., Sog'inov N.A. O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari Ilmiy ishlar to'plami.

2. Imomqulova, F. (2022) “ОИЛАДА ТАРБИЯНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

3. Makarenko A. S. Kniga dlya roditeley.

4. Lishin O.V. Pedagogicheskaya psixologiya vospitaniya.

5. wikipedia.uz

